



STUDY OF CHILDREN WITH ATOPIC DERMATITIS THROUGH RETROSPECTIVE ANALYSIS

Mirraximova M.X.

Tashkent Medical Academy

Nishonboeva N.YU.

Tashkent Medical Academy


Resume

One of the characteristics of chronic diseases of the gastrointestinal tract (GIT) in children is their comorbid course. The link between allergies and the digestive system is of particular interest. Direct allergic damage to the mucous membranes of the esophagus, stomach and intestines by various allergens, damage to other organs with simultaneous increase in the permeability of the epithelial barrier of the gastrointestinal tract to allergens, and the simultaneous development of local inflammation estimated. Because the gastric mucosa is in contact with allergens that enter before other digestive organs, the combination of these allergic diseases and AID pathology is attracting the attention of researchers today.

Keywords: children, atopic dermatitis, gastrointestinal tract, intestinal flora, elastase, pancreatitis.

Introduction

Ilmiy izlanishning birinchi bosqichida atopik dermatit bilan kasallangan bolalarda oshqozon ichak traktidagi klinik laborator o'zgarishlarini uchrash darajasini va kelib chiqish xavf omillarini retrospektiv taxlil qilish yordamida aniqlash, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish vazifasi amalga oshirildi. Retrospektiv tahlil qilingan bemor bolalar oshqozon ichak traktining holatiga qarab guruhlariga ajratildi. Atopik dermatitda oshqozon-ichak traktida (OIT) klinik- laborator o'zgarishlar bor bo'lgan bolalar 331 nafarni (85,7%), OIT klinik- laborator o'zgarishlar kuzatilmagan bolalar esa 55 nafarni (14,2%) tashkil etdi.



1-rasm. AtD OIT klinik laborator o'zgarishlarni yillar bo'yicha dinamikasi (%)



Retrospektiv tahlil ma'lumotlariga ko'ra AtDli bolalarda OIT o'zgarishlar yildan yilga ortib borishi va uchrash chastotasi xududlarga bog'liqligi aniqlandi, ko'proq Toshkent shahar, Toshkent viloti va Samarqand viloyatida aniqlandi (3.2-rasm). Masalan 2017 yilda AtDda OIT klinik-laborator o'zgarishlar bilan 29 nafar bemor (68,4%) murojaat qilgan bo'lsa, 2020 yilga kelib murojaatlar soni 137 nafarni (86,1%) tashkil qilgan (3.1-rasm).



2-rasm. Bolalarni yashash xududiga qarab taqsimlanishi (abs.)

Anamnezni o'rganish shuni ko'rsatdiki, atopik dermatit bilan kasallangan bemor bolalarning (84,5%) aksariyati allergik kasalliklarga nisbatan murakkab irsiyatga ega bo'lib, bu odatda ko'plab mualliflarning tadqiqot natijalariga mos keldi. SHunday qilib, biz kuzatgan bemorlarning otanonalaridan birida 29,2% hollarda bronxial astma, 19,5% - allergik rinit, 16,3% - pollinoz, 14,5% - oziq - ovqat allergiyasi, 11,3% - atopik dermatit va 9,2% - dori allergiyasi aniqlandi.

Tekshirilgan bolalarning yaqin qarindoshlari orasida oshqozon ichak trakti kasalligi (86,4%) aniqlandi. Barcha guruhlarda 20 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan onalar (69,3%) ustunlik qildi. Asosan bolalar ikkinchi homiladorlikdan (49,8%) tug'ilgan. Homiladorlik davrini o'rganish shuni ko'rsatdiki, onalarni homiladorlikning ikkinchi yarmidagi gestoz (41,5%), kamqonlik (61,5%) va allergiya (63,3%) bezovta qilishi ustunlik qildi. Ko'pchilik onalarda xomiladorlik davrida allergik va somatik kasalliklarning kuzatilganligi ularning bolalarida atopik dermatit kelib chiqishiga sabab bo'lganligi qayd qilindi.

AtD oshqozon ichak traktidagi kliniko-laborator o'zgarishlarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillardan biri bo'lgan ovqatlanish xarakteri o'rganilib, guruhdagi bemorlarning kundalik ovqat tarkibi, turi va tartibi inobatga olindi. CHaqaloqlar AtD 69,6% bolalar erta sun'iy ovqatlantirishga o'tkazilganligi, oila dasturxonini ovqatlariga erta o'tishi ma'lum bo'lgan bo'lsa, bolalar (64,9%) va o'smirlar AtD esa (82,3%) asosan bemorlarning ovqatlanish tartibiga roya qilmasligi kuzatildi. Ovqatlanish xarakteriga ko'ra ko'p iste'mol qilinuvchi mahsulotlar ya'ni shirinliklarni ustunligi asosan chaqaloqlar AtD (73,6%) ($r > 0,05$), yog'li tarkibga ega taomlar ustunligi (69,4%) ($r < 0,001$), o'tkir, achchiq taomlarning ustunligi o'smirlar AtD - (64,7%) kuzatildi. Bolalar AtD go'shtli ovqatlarni ko'p iste'mol qilish yani 103 nafar (76,8%) holda kuzatilishi aniqlandi



($r < 0,001$). SHu bilan birga o'smirlar AtD ovqatlanish chastotasi nisbatan kamligi kuzatildi ($r < 0,001$) (1-jadval).

1-jadval Atopik dermatitda bemorlarning ovqatlanish xarakteri

Ko'rsatkichlar	CHaqaloqlar AtD (n=167)		Bolalar AtD (n=134)		O'smirlar AtD (n=85)		R
	abs	%	abs	%	abs	%	
YOg'li ovqat	29	17,3	85	63,4	59	69,4	<0,001
O'tkir, achchiq	76	56,7	78	58,2	55	64,7	<0,001
Tuzli	27	16,1	34	25,3	49	36,5	<0,001
Xamirli	15	8,9	24	17,9	41	30,5	<0,001
Go'shtli	98	58,6	103	76,8	72	84,7	<0,001
SHirinliklar	123	73,6	74	55,2	34	40,0	>0,05
Gazli ichimliklar	45	26,9	116	86,5	81	95,2	<0,001
Kuniga 2 – 3 marta ovqatlanish	65	38,9	87	64,9	76	89,4	<0,001
Kuniga 4-5 marta ovqatlanish	102	61,0	47	35,0	9	10,5	<0,001

Izoh: R - guruxlarni o'zaro solishtirganda.

E'tiborga loyiq tomoni shundaki, retrospektiv tahlilga jalb qilingan bemorlarning kasallik tarixlarida AtD oshqozon ichak traktining klinik laborator o'zgarishi kelib chiqishiga sabab bo'luvchi eng asosiy omillardan bolani ovqatlanishiga, dori vositalarni qabul qilishga doir savollar to'liq aks ettirilmagan. SHu o'rinda biz tomonimizdan olingan ma'lumotlarga ko'ra noto'g'ri ovqatlanish tekshirilgan guruhdagi 156 nafar (40,4%) bemorda kuzatildi va dori vositalarni pala partish qabul qilish 105 nafar bemorda (27,2%) aniqlandi. Tadqiqot davomida bemorlarning ijtimoiy sharoitlari va xayot tarzi o'rganilganda quyidagi omillar ya'ni aqliy zo'riqish, jismoniy zo'riqish, ruhiy emotsional holatning o'zgarishi, turli ijtimoiy sharoitidagi omillarning uchrashi inobatga olindi (2 –jadval).

2-jadval AtD bemorlarning ijtimoiy turmush va psixoemotsional holatlari

Ko'rsatkichlar	CHaqaloqlar AtD (n=167)		Bolalar AtD (n=134)		O'smirlar AtD (n=85)		R
	abs	%	abs	%	Abs	%	
Psixoemotsional zo'riqish	23	13,7	79	58,9	54	63,5	>0,05
Jismoniy zo'riqish	5	2,9	56	41,7	39	45,8	<0,001
Aqliy zo'riqish	-	-	38	28,3	66	77,6	>0,05
Gipodinamiya	9	5,3	31	23,1	63	74,1	<0,001
Hayvon va qushlar bilan muloqat	4	2,3	37	27,6	49	57,6	<0,001
CHang bilan muloqat	9	5,3	39	29,1	41	48,2	>0,05
Ijtimoiy sharoitning og'irligi	43	25,7	23	17,1	19	22,3	<0,001
Ekologik xududning yomonligi	28	16,7	35	26,1	29	34,1	>0,05


Izoh: R - guruxlarni o'zaro solishtirganda.

Tahlil natijasiga ko'ra bolalar va o'smirlar AtD psixoemotsional zo'riqish chaqaloqlarga (13,7%) nisbatan ko'proq, mos ravishda (58,9% va 63,5%) kuzatilganligi ma'lum bo'ldi ($r > 0,05$). Aqliy zo'riqish



esa (77,6%) o'smirlarda boshqa guruhdagi bemorlarga nisbatan ko'p holatlarda kuzatilgan ($r > 0,05$). Ijtimoiy sharoitning og'irligi esa chaqaloqlarda o'smirlarga nisbatan ustunligi kuzatilgan bo'lsa, boshqa turdagi sharoitlar ya'ni jismoniy zo'riqish, gipodinamiya, hayvon, chang bilan muloqat nisbatan kam uchrashi qayd etildi.

Ta'kidlash joizki, retrospektiv tahlilda aks ettirilgan xavf omillaridan nasliy moyillik, xomiladorlik davridagi surunkali kasalliklarning onada kuzatilishi bilan bir qatorda kuzatuvdagi bolalarda oshqozon ichak tizimi kasalliklari hamda boshqa a'zolarining patologik o'zgarishlar ham inobatga olindi (3.3-rasm). Masalan: 62% kamqonlik, 28,2% surunkali tonzillit, 72,5% tishlar kariesi aniqlandi va bu kasalliklar bu guruhda OIT klinik laborator o'zgarishi yo'q bolalarga nisbatan ustunlik qildi. Tekshirilgan bemorlarning 35,5% oziq - ovqat allergiyasi va 22,3% - dori allergiyasi kuzatildi, bu holatlar ham atopik dermatit rivojlanishiga sabab bo'lgan.



Izoh: R - guruxlarni o'zaro solishtirganda.
3-rasm. Bemor bolalarning yondosh kasalliklari (%).

Tahlildagi AtDli bemorlarning yondosh kasalliklarini o'rganish shuni ko'rsatdiki OIT kliniko-laborator o'zgarish bor guruhdagi bolalarning barchasida oshqozon ichak traktiga tegishli kasalliklar aniqlandi: 52,9 % - surunkali PE, 24,5% - surunkali gastrit, 22,9% - surunkali xoletsistit, 20,5% - ichakni ta'sirlanish sindromi, 15,6% - surunkali GD, 15,5% - o't tosh kasalligi, 8,4% - yara kasalligi, bu bemorlarning 50% ortig'ida bir vaqtning o'zida 2 ta va 3 ta OIT kasalligi aniqlandi.

Retrospekti taxlil mobaynida AtD bemorlarning kasallik tarixi va ambulator kartasi o'rganilganda, oshqozon ichak traktidagi shikoyatlar bilan qaysi mutaxassisga birinchi bora murojaat etish holati taxlil qilindi. Bunda umumiy amaliyot shifokori, pediater, allergolog, dermatolog va gastroenterolog kabi mutaxassislar inobatga olingan (3 - jadval).



3- jadval AtD bemorlarning turli mutaxassislarga murojat qilish holati

Mutaxassislar	CHaqaloqlar AtD (n=167)		Bolalar AtD (n=134)		O'smirlar AtD (n=85)		R
	abs	%	abs	%	Abs	%	
Umumiy amaliyot shifokori	78	46,7	54	40,2	34	40,0	>0,05
Pediatr	25	14,9	18	13,4	15	17,6	<0,01
Allergolog	16	9,5	27	20,1	17	20,0	>0,05
Dermatolog	18	10,7	26	19,4	13	15,2	
Gastroenterolog	32	19,1	9	6,7	6	7,0	>0,05
Jami	167	100,0	134	100,0	85	100,0	>0,05

Izoh: R - guruxlarni o'zaro solishtirganda.

CHaqaloqlar AtD – 78 (46,7%), 25 (14,9%), 16 (9,5%), 18 (10,7%) va 32 (19,1%), bolalar AtD esa – 54 (40,2%), 27 (20,1%) va o'smirlar AtD 34 (40,0%) ($r > 0,05$), 17 (20,0%) yuqoridagi mutaxassislarga mos ravishda murojaatlari kuzatilgan. Ko'p hollarda bemorlarda AtD oshqozon ichak tizimidagi klinik-laborator o'zgarishlar boshqa mutaxassislar tomonidan aniqlangan lekin kerakli davo tavsiyalar o'z vaqtida berilmagan. Bu o'z navbatida sog'liqni saqlash tizimining ikkinchi bo'g'inidagi tor doiradagi mutaxassislar tomonidan aniqlangan OIT klinik-laborator o'zgarishlarni o'z vaqtida davolanmaganligidan dalolat beradi.

SHu bilan birga bemorlarning o'rtacha bir yil mobaynida kasalxonaga yoki mutaxassislarga murojaat qilish chastotasi quyidagi ko'rsatkichlarda o'z aksini topdi: bir yilda bir marotaba – 20,5%, bir yilda 2 - 3 marotaba – 46,3%, yiliga 4 – 5 marotaba 31,3%, 6 marotabadan ortiq – 1,9 %. Taxlil natijalari AtD kasallikning og'ir kechishi oshqozon ichak tizimidagi o'zgarishlarni boshqa surunkali kasalliklarga nisbatan tez avj olishi, bu o'z navbatida patologik holatning bemorlarning turmush tarziga salbiy ta'sir qilishi hamda asoratlarning tez rivojlanishiga imkon yaratishini bildiradi.

Tibbiyot muassasasiga murojaat qilgan AtDli bolalarga tavsiya qilingan va tekshirilgan laborator - instrumental tekshiruv rejasi tahliliga ko'ra AtDli bemorlarda oshqozon ichak traktidagi o'zgarishlarni tashxislash va olib borishda sog'liqni saqlashning ikkinchi bo'g'ini statsionar bosqichida shifokorlar tomonidan qo'yilgan bir qator kamchiliklar, to'liq tashxis qo'yish uchun kerakli majburiy tekshiruv usullarni tavsiya qilinmaganligi aniqlandi. Barcha guruhdagi AtDli bemorlarga oshqozon osti bezi (OOB)ning, xususan tashqi sekretor etishmovchilikni aniqlash mezoniga kiruvchi najasda pankreatik elastaza miqdorini aniqlash usuli o'tkazilmaganligi aniqlandi. SHu bilan birga surunkali pankreatitni aniqlash va to'g'ri olib borishga imkon beruvchi tekshiruv usullaridan - koprologiya, amilaza va qorin bo'shlig'i UTT tekshiruv usullari tavsiya qilinmaganligi ma'lum bo'ldi.

AtDda oshqozon ichak traktidagi klinik laborator o'zgarishlarni tashxislashda shifokorlar tomonidan qayd etilgan ma'lumotlar xalqaro standartlar bilan solishtirilganda mutaxassislar tomonidan so'rab surishtirish jarayonida bir qator kamchiliklar, ya'ni patologik holatni aniqlashda muhim bo'lgan xavf omillarini chuqur o'rganish – nasliy moyillik, xomiladorlik davridagi surunkali kasalliklarning



kuzatilishi, ovqatlanish tartibini noto'g'ri olib borilishi OITga salbiy ta'sir qiluvchi dori vositalarni qo'llanish darajasi kasallik tarixida to'liq aks ettirilmagan - (85,2%) va 90% ortiq holatlarda barcha guruhlarda aniqlanmagan. Bu esa o'z navbatida nafaqat AtD li bemorlarda OIT klinik-laborator o'zgarishlarni tashxislash balki kasallik bo'yicha bashorat berish va bemorlarni olib borish taktikasini to'g'ri tanlash imkonini beruvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Ta'kidlab o'tish kerakki, deyarli barcha AtD li bemorlarning kasallik tarixi va ambulator kartasida tashxis bir xil ko'rinishda shakllantirilgan bo'lib, OIT kasalliklarga e'tibor berilmagan, zamonaviy tasnif tamoyillaridan foydalanilmaganligidan va o'z vaqtida davo olib borilmaganligidan dalolat beradi. E'tiborga loyiq tomoni shundaki, AtD li bemorlarda OIT klinik-laborator o'zgarishlardan eng ko'p uchragan (52,9%) surunkali pankreatitni tashxislanishida bemorlarni davolash va olib borishda o'ta muhim bo'lgan tashqi va ichki sekretor etishmovchilik holatlari o'z aksini topmagan.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Lee MJ, Kang MJ, Lee SY, Lee E, Kim K, Won S, Suh DI, Kim KW, Sheen YH, Ahn K, Kim BS, Hong SJ. Perturbations of gut microbiome genes in infants with atopic dermatitis according to feeding type // *J Allergy Clin Immunol*. 2018 Apr; 141(4):1310-1319.
2. Robison R. G., Singh A. M. Controversies in allergy: food testing and dietary avoidance in atopic dermatitis // *The Journal of Allergy and Clinical Immunology: In Practice*. – 2019. – T. 7. – №. 1. – S. 35–39.
3. Soboleva N. G., Pervishko O. V. Atopicheskiy dermatit u detey rannego vozrasta s proyavleniyami disfunktsii JKT i kojnogo sindroma // *RMJ*. – 2014. – T. 22. – №. 3. – S. 212–213.
4. McCance KL, Huether SE *Elektronnaya kniga po patofiziologii: biologicheskaya osnova bolezney u vzroslykh i detey*. - Elsevier Health Sciences, 2018.
5. Bogatyreva K. S. Sostoyanie pishchevaritelnogo trakta u detey doshkolnogo vozrasta s atopicheskim dermatitom / Bogatyreva K. S., Repetskaya D.V., Lishke D.V., SHaydullina E.V. // *Zdorove semi - 21 vek*. - 2013. - № 1 (1). - S. 023–034.
6. Korotkiy N. G. i dr. Korreksiya funktsionalnykh narusheniy motoriki organov pishchevareniya pri atopicheskom dermatite u detey // *Voprosy detskoj dietologii*. – 2015. – T. 13. – №. 4. – S. 5–10.
7. Kelli T., Buksbaum Dj. Jeludochno-kishechnye proyavleniya mukovissidoza // *Zabolevaniya organov pishchevareniya i nauki*. - 2015. - T. 60. - №. 7. - S. 1903–1913 gg.
8. Titova N. D. Lechenie atopicheskogo dermatita u detey: akcent na profilaktiku i vosstanovlenie epidermalnogo barera // *Retsept*. – 2020. – T. 23. – №. 1. – S. 121–130.
9. Mixaylova O. D., Bajenova N. L., Vaxrushev YA. M. Vliyanie urbanizatsii na osobennosti pitaniya Volnykh xronicheskim pankreatitom v Udmurtskoy Respublike // *zdorove, demografiya, ekologiya finno-ugorskix narodov health, demography, ecology*. – 2017. – S. 488.
10. Benn S.S., Mixaelson K.F. Zavisit li vliyanie grudnogo vskarmlivaniya na atopicheskiy dermatit ot semeynogo anamneza allergii? // *Jurnal pediatrii*. - 2012. - T. 147. - №. 1. - S. 128–129.